



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE'L YASALISHI BORASIDA BA'ZI ILMIY MULOHAZALAR

Ro'ziqulov Shohruh ilhom o'g'li

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Mamatqulov Azizbek Rustamovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Egamov Umid

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15386840>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

so'z yasalishi, affiksatsiya va kompozitsiya-sintaktik, konversiya usul, leksik-semantik, fonetik so'z yasash.

ABSTRACT

Tilshunoslik fanining o'rganilishi sistematik ravishda amalga oshirilmoqda, jumladan, bo'limlarga ajratish, turkumlarni aniqlash, kategoriyalarga bo'lish, guruhlarga ajratish va nihoyat oppozitsiyada turgan holatlarni baholash kabilar. Demak, so'z yasalishi ham bundan mustasno emas, chunki so'z asosi bilan yasovchi o'rtasidagi munosabat bu jarayonni asoslab beradi. Darhaqiqat, tilshunoslik fani tarixidan to bugungi kungacha bo'lgan davrda so'z yasalishi bo'yicha turlicha qarashlar, fikrlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan, turkiy tillarga oid fe'l yasalishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada taniqli tilshunos olimlarning fe'l yasalishi bilan bog'liq munozarali masalaga oydinlik kiritishga harakat qilganligi va o'zining ilmiy qarashlari bilan fe'l yasalishiga doir xulosalar berganligiga guvoh bo'lamiz.

Kirish. O'zbek tilshunosligida so'z yasalishi muammosi uzoq davrlardan buyon olimlar diqqatini jalb qilib keladi. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham, Fitratning "Sarfi" asarlarida ham so'z yasalishiga doir fikrlar bayon qilingan. Xususan fe'l yasalishiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. "So'z yasalishi" tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida ilk bor A. G'ulomov tadqiqotlari asosida XX asrning 40-yillarida shakllandi[1]. A.G'ulomovning morfonologiya va so'z yasalishiga doir ishlarida, shuningdek, «Fe'l» kitobida juda ko'p bir-biridan yasalgan, bir-biriga tovush juftliklari (fonostoma) jihatidan hamda ma'no aloqadorligiga ko'ra bog'lanuvchi birliklar borligini, ular uch-to'rtta emas, yaxlit sistemani tashkil etishini ta'kidlagan. Ularning bir-biridan yasalganligini belgilovchi qonuniyatlari ham mavjud tilga olgan. Fonetik o'zgarish asosida farqlanish tarzida yangi so'zlar hosil bo'lishi masalasi A.G'ulomov tomonidan jiddiy tadqiq etilgan bo'lib, shu usulda so'z yasalishi mavjud bo'lganligi asoslab berilgan. Tilshunoslikda so'z yasash usullarining, haqiqatan ham, til tarixida mavjud bo'lganligini qo'llab-quvvatlovchi, buni atroflicha o'rganishga da'vat etuvchi faktlarga asoslangan ma'lumotlar borligini inkor etib bo'lmaydi. Mazkur holat A.Fulomov tadqiqotlarining o'zbek tili faktlariga to'la asoslanganligi, chuqur tahlillar asosida xulosalanganligi, tilshunoslik

taraqqiyoti uchun nazariy manba bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olim «Fe'l» kitobida kompozitsiya usulining o'ziga xos jihatlarini asosli tarzda ko'rsatib berganligidan tashqari, 1975 yilda bu masalaga yana alohida e'tibor qaratadi. «O'zbek tili grammatikasi» kitobining «Qo'shma so'zlar» qismida ular yasashining asosiy xususiyatlarini, qo'shma so'z yasashidagi qonuniyatlarni yaxshi ochib beradi va «So'z yasashning bu tipini ham o'zbek tilidagi aktiv yo'llardandir» degan asosli fikrni ayta oldi.

Natijalar va muhokama. XX asrning 40-yillarida A.G'ulomovning «O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida» 50 sahifali maqolasi nashr etiladi [2]. Olim ushbu ishida «So'z yasash termini, dunyo tillarida so'z yasash usullarining bir qancha xil bo'lishiga qaramay, bizning ongimizda, odatda, affiks orqali yangi so'zning muomalaga kirishi tushuniladi, chunki hozirgi tillarda eng ko'p qo'llanadigan, juda singib ketgan usuldir. Lekin bundan boshqa (affikssiz) so'z yasash usullari ham bordir», - deydi [2]. Olim agar affikssiz boshqa usullar ham bordir, deganda, yordamchi so'z sifatida so'z yasashda ishtirok etgan vositalarni (kam, xush, qil, bo'l, et...) nazarda tutgan holda ushbu fikrni aytgan bo'lsa ham, baribir, haqlidir. Olim keyingi olib borgan tadqiqotlari natijasida o'z qarashlarini qisman o'zgartirib, holatlarni umumlashtirib, yangicha yondashib, so'z yasash usullarini uchtaga birlashtirib, grammatik so'z yasash, leksik-semantik so'z yasash va fonetik so'z yasash tarzida ajratadi [3]. Albatta, olim shu o'rinda berilgan jumlada "...o'zbek tilida so'z yasash vositalari har xil bo'lib, ularning tiplari shunday ko'rinishlarga ega: morfologik tip, leksik-semantik tip, morfologik-sintaktik tip, fonetik tip" tarzidagi fikrni aytadi. Ko'rinadiki, A.G'ulomov ushbu fikrida, haqiqatdan ham, ayrim olimlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, go'yo "so'z yasash tipi" va "so'z yasash yo'li" tushunchalarini qorishtirib yuborgan, ularni ekvivalenti sifatida qo'llagan. Hatto, tip ma'nosida «model» so'zini ham qo'llanganligi qayd etiladi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida o'zbek tilshunosligida so'z yasashining asosan bitta usuli mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar bor, lekin barcha tilshunosliklarda aksariyat olimlarning chiqishlarida kompozitsiya usulida so'z yasashi yo'qligi qayd etila boshlandi [4]. Akademik A.Hojiev o'zining 1989 yili nashr etgan «O'zbek tili so'z yasashi» qo'llanmasida kompozitsiya usulini ko'rsatib beradi. Olim abbreviatsiya, leksik-semantik, fonetik, sintaktik-leksik usullarni alohida usullar tarzida qayd etmaslikni bayon qilgan hamda abbreviatsiya usulini so'z yasashi usuli sifatida qaramaslik haqidagi fikrlari yaxshi asoslangan. So'z yasash muammolari, jumladan, so'z yasash usullari borasida o'ziga xos tarzda mukammal fikrlar aytgan, o'z qarashlarini bildirgan. Olim o'tgan asrning 80-yillarda kompozitsiya usuli asosiy usullardan biri ekanini tan olgan edi. Biroq til sistemasiga yangicha yondashuvlar, yangi kuzatishlar asosida o'z fikrini o'zgartirdi. «O'zbek tili so'z yasashi tizimi» qo'llanmasida kompozitsiya usulida so'z yasashini alohida usul sifatida qaramaslik kerakligini ta'kidlab 3 punktdan iborat xulosa beradi [4]. Albatta, hozirgi kungacha ham, hozir ham qo'shma so'z deb atalib kelingan va ot+sifat, son+ot, fe'l+ot, taqlidiy so'z+ot, ot+sifat, ot+sifatdosh, ot+ot tipida yasalgan birliklar «so'z yasash usuli bilan hosil bo'lgan so'zlar hisoblanmaydi deb ta'kidlagan [5]. "Binobarin, ular so'z yasashi tizimi ob'ektiga kirmaydi, tarkibida birdan ortiq lug'aviy ma'noli qismning borligi «qo'shma so'z»lik belgisi, kompozitsiya usuli bilan yasalganlik belgisi bo'la olmaydi" [5] kabi fikrlarning to'g'ri yoki to'g'ri emasligi munozaralidir. Bularning har biri avvalo atroflicha asoslanishi kerak. Jumladan, qo'shma so'zlar deb atalib kelinayotgan yangi lug'aviy birliklarni tan olmaslik mumkin emas, chunki lug'at, grammatikalarda ham qayd etilgan. Lekin ularni qo'shma so'zlar deb atash kerakmi yoki soddalashish jarayoni sodir bo'lganligi va bir tushunchani ifodalovchi birlikka aylanganini hisobga olib sodda so'zlar deb atash kerakmi? Soddalashish jarayoni, ikkita so'zning oddiy birikishi qo'shma so'zni – shunday lug'aviy birlikni yuzaga keltira oladimi? kabi savollarga javob topishga ham harakatlar qilingan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, olimning XX asrning 70 yillarida soʻz yasashiga ham tarixan, ham zamonaviylik nuqtai nazaridan yondashganligiga amin boʻldik. Oʻzbek tilida soʻz yasashining bir necha turlari borligi toʻgʻrisida ilmiy adabiyot va darsliklarda berib kelingan, biroq bu masala bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Chunki soʻz yasashi oʻzbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi davrida hamda oʻzbek ilmiy morfologiyasining oʻrganilishi davrida ham chuqur tahlil etilgan boʻlsa-da, bugungi sistem-struktur bosqichida esa oʻzgacha tarzda talqin qilinmoqda. Tilshunoslikda soʻz yasashi bilan bogʻliq fikrga qaytadigan boʻlsak, birinchidan, rivojlangan tilshunosliklarning barchasida hali hech kim kompozitsiya usulida soʻz yasashi mavjud ekanligini asosli tarzda inkor etmagan (uni *sintaktik, leksik-sintaktik, semantik-sintaktik* usullar tarzida nomlaganlar borligi maʼlum), rad eta olgan emas, ikkinchidan, hali turkiy tilshunoslikda, hatto, *opke* tipidagi birliklarni prefiksatsiya usulida soʻz yasashga kiritib, turkiy tillarda ham prefiksatsiya bor - prefikslar mavjuddir - deb olimlar izohlagan [6] va A.Gʻulomov qayd etgan fonetik usulda soʻz yasashini asosli tarzda bekor qila olgan emaslar. Biroq bu usulning, haqiqatan ham, til tarixida mavjud boʻlganligini qoʻllab-quvvatlovchi, buni atroflicha oʻrganishga daʼvat etuvchi, faktlarga asoslangan holda, bu usulni tan oluvchilar bor. Mazkur holat A.Fulomov tadqiqotlarining oʻzbek tili faktlariga toʻla asoslanganligi, chuqur tahlillar asosida xulosalanganligi, tilshunoslik taraqqiyoti uchun nazariy manba boʻlganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olim «Feʼl» kitobida kompozitsiya usulining oʻziga xos jihatlari asosli tarzda koʻrsatib berganligidan tashqari, 1975 yilda bu masalaga yana alohida eʼtibor qaratadi. «Oʻzbek tili grammatikasi» kitobining «Qoʻshma soʻzlar» qismida ular yasashining asosiy xususiyatlarini, qoʻshma soʻz yasashidagi qonuniyatlarni yaxshi ochib beradi va «Soʻz yasashning bu tipini ham oʻzbek tilidagi aktiv yoʻllardandir» [6] degan asosli fikrni aytadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fazliddin, S., Alisher, A., Azizbek, M., & Shoxistaxon, X. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 30-33.
2. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
3. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). OʻZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
4. Ermatov, I., Eshboyeva, F., & Mamatqulov, A. (2025). TOʻRA SULAYMONNING SOʻZ QOʻLLASH MAHORATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 101-105.
5. Fazilat, E., Azizbek, M., & Ermatov, I. (2025). PRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKNING BIR TARMOGʻI SIFATIDAGI TAʼRIFI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 192-195.
6. Mamatqulov, A. (2024). AZIM HOJIYEV LUGʻATSHUNOS OLIM. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 525-259.
7. Shoxistaxon, X., Sayyora, Y., & Mamatqulov, A. (2024). QOʻSHMA SOʻZLARNING VUJUDGA KELISHI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 60-65.
8. Azizbek, M. HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARINING MORFEMAGA OʻTISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR. *PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*, 204.
9. Qushoqovich, A. O. K. (2022). Importance of using terms in English and uzbek.

10. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
11. Tursunkulovich, M. A., Fazilat, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 66-69.
12. Pardayeva, I., & Ro'ziqulov, S. (2025). ZARGARLIK TERMINLARINING TEMATIK TASNIFI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 94-96.
13. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
14. Ro'Ziqulov, S., Pardayeva, I., & Alisher, O. R. (2025). FE'LDA VALENTLIK. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 209-211.
15. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O 'RGANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).
16. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
17. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.
18. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогики*, (7 (39)), 77-78.
19. Egamov, U. (2024). LEXICAL REPETITIONS IN THE POETRY OF USMON AZIM. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 34-43.
20. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).